

## YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 140 (929), 2023-yil 15-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLANGAN PREZIDENTI O'Z LAVOZIMIGA KIRISHDI

14-iyul kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.



Unda deputat va senatorlar, davlat tashkilotlari rahbarlari, diplomatik korpus va jamoatchilik vakillari, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Marosimni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z.Nizomxo'jayev ochib, Prezident saylovi yangilangan Konstitutsiyamiz va demokratik tamoyillar asosida, siyosiy faollik muhitida o'tganini ta'kidladi. Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev saylovchilarning 87,05 foiz ovozi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanganini qayd etdi. Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyevni qizg'in tabriklab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti guvohnomasini topshirdi.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qildi.

Marosimda davlatimiz rahbari nutq so'zladi.

— Bugun yelkama qanday ulug'vor mas'uliyat olayotganimni, Vatanimiz mustaqilligi, 36 milliondan ziyod aziz xalqimning tinchligi va farovonligi uchun shaxsan javobgar ekanimni yurak-yuragimdan his etib turibman. Mana shunday yuksak ishonch uchun, hurmat va e'tibor uchun ko'pmillatli, mard va donishmand xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta'zim qilaman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston yangi davrga qadam qo'yayotgani, u siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarida tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'lajagi ta'kidlandi. Buning uchun yangi g'oya va tashabbuslar, avvalgidan-da ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlash kerak.

Dunyodagi ziddiyatlar iqtisodiyot uchun muammolar keltirib chiqarmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani ham barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mana shunday og'ir va tahlikali vaziyatda xalqimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to'g'ri yo'lni —

samarali ichki va tashqi siyosat yo'lini aniq belgilab olish va uni qat'iy amalga oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Prezident shu boradagi kelgusi yetti yilga mo'ljallangan strategik maqsadlarni ko'rsatib o'tdi. Qisqa qilib aytganda, bular — qonunchilik va ijro hokimiyatini takomillashtirish, ixcham va samarali boshqaruv tizimini tashkil etish, ijtimoiy soha va xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlikka imkoniyatlarni kengaytirish, ish o'rinlari va aholi daromadlarini ko'paytirish kabildir.

Iqtisodiyot sohasida "yashil iqtisodiyot", "yashil energiya" tamoyillari yanada keng joriy etiladi. Investitsiyalar jalb qilish ko'paytiriladi. Sanoat rivojlantiriladi. 2030-yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida yoshlarga alohida murojaat qildi.

— Aziz o'g'il-qizlarim, bugun tarixning o'zi, zamonning o'zi sizlarning oldingizda beqiyos imkoniyatlar ochmoqda. Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davomi 2-betda

## XALQIMIZNING YUKSAK ISHONCHINI OQLASH, ERISHGAN YUTUQLARIMIZNI YANGI, YANADA ULKAN NATIJALAR BILAN MUSTAHKAMLASH — BOSH VAZIFAMIZ

YANGI SAYLANGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING LAVOZIMGA KIRISHISH TANTANALI MAROSIMIGA BAG'ISHLANGAN OLIY MAJLIS PALATALARI QO'SHMA MAJLISIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadri vatandoshlar! Hurmatli Senat a'zolari! Hurmatli Qonunchilik palatasi deputatlari! Xorijiy diplomatik korpus vakillari! Xonimlar va janoblari!

Mana shu tarixiy va hayajonli daqiqalarda avvalo menga yuksak ishonch bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylagan barcha yurtdoshlarimga yana bir bor chin qalbidan samimiy minnatdorchiлик bildirdim.

Muqaddas Vatanimiz timsoli va mustaqilligimiz ramzi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'iga, madhiyamiz va gerbimizga, menga topshirilgan Prezidentlik Oliy nishoni va bayrog'iga yuksak hurmat bilan keltirdim.

Aziz do'stlar!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishimni men inson huquq va erkinliklarini, xalq manfaatini ta'minlashga qaratilgan siyosatimizning yana bir yuksak e'tirofi sifatida qabul qilaman.

Bo'lib o'tgan Prezident saylovi yangilangan Konstitutsiyamiz asosida o'tkazilgani unga chinakam xalqchil ruh va mazmun bag'ishladi. Ushbu saylovda xalqimiz o'z xohish-irodasini amin-erkin bildirib, Yangi O'zbekiston uchun ovoz berdi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Mamlakatimiz hayotidagi g'oyat muhim va mas'uliyatli bu siyosiy jarayon el-yurtimiz bilan birgalikda tanlagan va amalga oshirayotgan milliy taraqqiyot yo'limiz naqadar to'g'ri ekanini yana bir marta tasdiqladi.

Saylovda 15 ta xalqaro tashkilotdan 466 nafar, 47 ta xorijiy davlatdan 331 nafar vakil xalqaro kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Shu bilan birga, 1400 nafar mahalliy va xorijiy jurnalistlar saylov jarayonlarini atroflicha yoritib bordi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining uzoq muddatli missiyalari butun saylov jarayonlarini bevosita kuzatib bordi.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo assambleyasi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkilotidan ham kuzatuvchilar ishtirok etdi. Bularning barchasi ushbu saylov jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otganini ko'rsatadi.

Mahalliy va xorijiy kuzatuvchilar saylov milliy qonunchiligimiz va umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar asosida, erkin va demokratik, sog'lom raqobat va siyosiy kurash muhitida, ochiqlik va shaffoflik ruhida o'tganini e'tirof etdilar. Bu, o'z navbatida, barchamizni birlashtirib, o'z kuch va imkoniyatimizga bo'lgan ishonchimiz, xalqimiz,

Vatanimiz oldidagi mas'uliyatimizni yanada oshirishi tabiiy, albatta.

Hurmatli tantanali marosim qatnashchilari!

Olijanob va bag'rikeng xalqimiz menga yana bir bor katta ishonch bildirib, buyuk Vatanimiz taqdiri uchun butun mas'uliyatni o'z zimmamga olish imkonini berganini shu hayajonli lahzalarda yanada chuqur anglab, qalbim cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'lmoqda.

Shu bilan birga, bugun yelkama qanday ulug'vor mas'uliyat olayotganimni, Vatanimiz mustaqilligi, 36 milliondan ziyod aziz xalqimning tinchligi va farovonligi uchun shaxsan javobgar ekanimni yurak-yuragimdan his etib turibman.

Mana shunday yuksak ishonch uchun, hurmat va e'tibor uchun ko'pmillatli, mard va donishmand xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta'zim qilaman.

Nomzodimni ilgari surgan va saylov kampaniyasi davomida asosiy tayanchim bo'lgan Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining a'zolari va faollariga, biz bilan hamfikr bo'lib, nomzodimni qo'llab-quvvatlagan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi vakillariga, barcha tarafdorlarim hamda ishonchli vakillarimga chin qalbidan tashakkur aytaman.

Saylovda munosib ishtirok etgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod — Robaxon

Mahmudovaga, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan — Ulug'bek Inoyatovga, O'zbekiston Ekologik partiyasidan — Abdushukur Hamzayevga alohida minnatdorlik bildirib, ularning kelgusi ishlariga yutuq va omadlar tilayman.

Albatta, biz turli siyosiy partiyalarga mansub bo'lishimiz, turli g'oya va qarashlar tarafdori bo'lishimiz mumkin. Demokratiya degani ham aslida shu. Ammo mohiyat e'tibori bilan qaraganda, barchamizning, butun O'zbekiston xalqining maqsadi bir. Bizning barchamizni Vatani, el-yurt manfaatini birlashtiradi.

Shu sababli biz saylovda qatnashgan partiyalarimiz dasturlaridagi eng muhim fikrlar va amaliy takliflarni kelgusi faoliyatimizda albatta e'tiborga olamiz. Barchamiz Yangi O'zbekiston degan yagona va ulug' maqsad atrofida yanada jipslashib, xalqimizning orzu-armoni bo'lgan mana shu ezgu g'oyani amalga oshirish yo'lida hamkorlik qilamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun, ushbu tantanali marosimda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilariga, barcha tuman va shaharlarimiz, qishloq va ovullarimiz aholisiga, yurtimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash yo'lida siddiqdildan xizmat qilayotgan mahalla faollariga, fuqarolik instituti vakillariga, hayotimizning nuru ziyosi bo'lgan aziz faxriylarimizga,

jamiyatimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan qadri opa-singillarimizga, kelajagimiz egalari — navqiron yosh avlodimizga, suyuqli o'g'il-qizlarimga, chet ellarda ta'lim olib, mehnat qilayotgan, Vatani mehri bilan yashayotgan barcha vatandoshlarimizga chin yurakdan tashakkur bildirdim.

Ayni vaqtda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilarga, tadbirkor va fermerlarga, bunyodkor quruvchilarimizga, fidoyi ustoz va murabbiylarga, ilm-fan, ijod va san'at ahliga, muhtaram ulamolalarimizga, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlariga, dunyodagi eng ulug' va sharaflil vazifani ado etayotgan jasur harbiylarimizga, barcha Vatani himoyachilariga, jahon maydonlarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan matonatli sportchilarimizga alohida rahmat aytaman.

Shu bilan birga, Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zolariga, mahalliy hokimliklar hamda xorijiy mamlakatlardagi elchilarimizga, diplomatik vakolatxonalarimiz xodimlariga, saylov jarayonlarida qatnashgan mahalliy va xorijiy kuzatuvchilarga, ommaviy axborot vositalari vakillariga, jurnalist va bloggerlarga samimiy minnatdorchiлик izhor etaman.

Davomi 2-betda

## SAMIMIY QUTLOVLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga 9-iyul kuni bo'lib o'tgan muddatidan ilgari saylovdagi ishonchli g'alabasi va lavozimiga kirishgani munosabati bilan xorijiy mamlakatlarning davlat va hukumat yetakchilari, taniqli siyosat va jamoat arboblari, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlaridan samimiy qutlovlar kelishda davom etmoqda.

Xorijiy hamkorlar qayd etganidek, mamlakatimizda o'tgan umumxalq saylovi Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha ortga qaytmas islohotlar dasturi hamda davlatimiz xalqaro nufuzini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar xalqimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganining navbatdagi tasdiqi bo'ldi.

Qutlovlarda mamlakatimiz bilan do'stlik va ko'p qirrali hamkorlikni har tomonlama mustahkamlashga intilish qat'iy ekani alohida ta'kidlanib, O'zbekistonning ko'p millatli xalqiga tinchlik-osoysishtalik, farovonlik, barqaror taraqqiyot va ravnaq tilaklari izhor etilgan.

Davomi 2-betda

## BIZ VA DUNYO

## YANGI O'ZBEKISTON — BU XALQQA XIZMAT QILISH SHARAF HISOBLANADIGAN MAMLAKAT

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 14-iyul kuni bo'lib o'tgan lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi xalqaro ekspertlar doiralari hamda katta aks-sado berdi.

Baxarudin ZULKIFLI, Singapurning O'zbekistondagi elchisi (qarorgohi Singapurda): — O'zbekistonning yangi saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Janobi Oliylarining inauguratsiya marosimini katta qiziqish bilan tomosha qildim.

Davomi 4-betda

## BUYUK O'ZBEK YO'LI

## XALQIMIZ — DAVLATXON, PREZIDENTIMIZ — XALQSEVAR VA ADOLATPARVAR

(O'zbekiston Respublikasi saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisi ilk taassurotlari)

Joriy yil 14-iyul kuni Senatning muhtasham majlislar zalida muddatidan ilgari o'tkazilgan saylovda ishonchli g'alaba qozongan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimi bo'lib o'tdi. Saylovda xalqimiz Shavkat Mirziyoyev nomzodi uchun eng ko'p — 87,05 foiz ovoz berdi.

Davomi 3-betda



# XALQIMIZNING YUKSAK ISHONCHINI OQLASH, ERISHGAN YUTUQLARIMIZNI YANGI, YANADA ULKAN NATIJALAR BILAN MUSTAHKAMLASH — BOSH VAZIFAMIZ

## YANGI SAYLANGAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING LAVOZIMGA KIRISHISH TANTANALI MAROSIMIGA BAG‘ISHLANGAN OLIY MAJLIS PALATALARI QO‘SHMA MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanish munosabati bilan samimiy tabriklarini yo‘llagan mamlakatimizning barcha fuqarolariga, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, siyosat va jamoat arboblarga chuqur ehtiromimni bildiraman.

Qadri vatandoshlar!

Xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan — deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan, har bir yurtdoshimizdan belimizni yanada mahkam bog‘lab, avvalgidan ikki-uch karra ko‘proq g‘ayrat va shijoat bilan ishlashni talab etadi.

Shu ma‘noda, oldimizda turgan davr O‘zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarida tub burilish va ulkan o‘zgarishlar davri bo‘ladi. Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi.

**Yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma‘noda yangi davr bo‘ladi.**

O‘zingiz ko‘rib turib, bugun dunyo qanday shiddat bilan, keskin o‘zgarib bormoqda. Jahon miqyosida bir tarixiy davr nihoyasiga yetmoqda. Ayni vaqtda oldindan tahlil qilib bo‘lmaydigan jarayonlardan iborat o‘ta murakkab yangi bir davr boshlanmoqda.

Yer yuzining turli mintaqalarida davom etayotgan qurolli mojarolar global tinchlik va osoyishtalikka jiddiy putur yetkazmoqda. Bunday nizo va to‘qnashuvlar, shafqatsiz raqobat savdo va investitsiya oqimlarini, tovar va xizmatlar aylanishini izdan chiqarib, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bo‘yicha yangi muammolar keltirib chiqarmoqda.

Dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslarining tobora taqchil bo‘lib borayotgan ham barqaror rivojlanishga kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Biz mana shunday og‘ir va tahlikali vaziyatda xalqimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to‘g‘ri yo‘lni — samarali ichki va tashqi siyosat yo‘lini aniq belgilab olishimiz va uni qat‘iy amalga oshirishimiz lozim.

Islohotlarimizning ta‘sirchanligi va bardavomligini ta‘minlash uchun yo‘limizda uchrashi mumkin bo‘lgan barcha xavf-xatar, to‘siq va g‘ovlarni hisobga olishimiz va ulardan talafotsiz o‘tish choralari ko‘rishimiz zarur.

Barchamiz birgalikda kelajakka ishonch bilan intilib, butun diqqat-e‘tiborimizni oldimizda turgan vazifalarni hal etishga qaratishimiz, xalqimiz kutayotgan, davming o‘zi talab etayotgan yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surishimiz lozim.

Biz o‘tmishdan, kechagi tariximizdan, yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarimizdan zarur xulosalar chiqarib, O‘zbekistonimizning dunyodagi o‘rni va nufuzini yanada yuksaltirishimiz, Vatanimiz shuhrati va shon-sharafini hamma jabhalarda munosib va mardona himoya qilishimiz kerak.

Nega deganda, bugungi keskin raqobat olamida kechagi mezon va yondashuvlar bilan rivojlanib bo‘lmaydi. Bugungi zamon — bu kechagi zamon emas.

Shu bois, har bir imkoniyatdan oqilona foydalanib, har qanday muammoni aql bilan, ilm bilan hal qilishimiz, turli sinovlarni xalqimiz bilan bamaslahat, og‘ir-vazmin bo‘lib yengib o‘tishimiz kerak.

Parlamentimiz, hukumatimiz, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar o‘zlarining kelgusi faoliyatlarini mana shu omillarning barchasini inobatga olgan holda tashkil etishlari zarur.

Endi barcha soha va tarmoqlarda tizim o‘zgaradi, vaziyat o‘zgaradi, samaradorlik o‘zgaradi.

Biz saylovning ertasi kunioq belgilab olingan ulkan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha qat‘iy harakatlarni boshladik. Chunki vaqt, hayot bizni kutib turmaydi. Davrning o‘zi barchamizni tekzor bo‘lishga, kerak bo‘lsa, vaqtdan o‘zib ishlashga undamoqda.

Kimki “Saylov o‘tdi — safarbarlik tugadi”, deb o‘ylasa, xato qiladi. Haqiqiy safarbarlik endi boshlanadi. Chunki xalqimiz bizga ishonib topshirgan katta-katta reja va dasturlarni o‘zimiz bajarmasak, aytimg, chetdan kim kelib bajarib beradi?

Kelgusi yetti yilga mo‘ljallab ishlab chiqilgan strategik maqsadlarga erishish uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar bor.

**Qudratli xalqimizga tayanib, aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni ishga solib, islohotlarimiz sur‘ati va samarasini yanada oshiramiz, hech qachon susaytirmaymiz. Qanchalik qiyin va mashaqqatli bo‘lmasin, tanlagan yo‘limizdan ortga qaytmaymiz.**

**“Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori” degan shior bundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart.**

Hurmatli deputat va senatorlar!

Yangilangan Konstitutsiyamizda muhriangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish kelgusi faoliyatimizning asosiy ma‘no-mazmunini tashkil etadi.

Saylovchilar bilan bo‘lgan barcha uchrashuvlarda men hayotimizni yaxshilash, uni har tomonlama erkinlashtirish haqida odamlarimizning juda ko‘plab fikr-mulohazalari, taklif va talablari bilan yaqindan tanishdim. Ularning asosiy qismi biz ishlab chiqayotgan taraqqiyot dasturidan albatta o‘rin oladi.

Shu maqsadda mavjud huquqiy-me‘yoriy bazani yangilash bo‘yicha oldimizda keng ko‘lamli ishlar turganini sizlar albatta yaxshi tasavvur qilasiz. Ya‘ni qanday yangi qonunlarni qabul qilish, qaysi qonun hujjatlarini o‘zgartirish kerakligini sizlar hammadan ko‘ra yaxshi bilasiz. Chunki sizlar el-yurtimiz ishonch bildirgan, qonuniy vakolat bergan xalq vakillarisiz.

Qonunchilik va ijro hokimiyatini takomillashtirish, ixcham va samarali boshqaruv tizimini tashkil etishda biz sizlarga, sizlarning boy tajribangiz, bilim va salohiyatingizga, fidoyilik fazilatlaringizga tayanamiz.

Konstitutsiyamizda muhrib qo‘yilganidek, jonajon O‘zbekistonimizni millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir fuqaromiz tinch va erkin, baxtli va farovon yashaydigan ijtimoiy davlatga aylantiramiz. Jumladan, ta‘lim va tarbiya, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san‘at, sport sohalarini rivojlantirish, yangi uy-joylar qurish, aholini ichimlik suvi, energiya bilan ishonchli ta‘minlash, ijtimoiy infratuzilmalar ishini yaxshilash bo‘yicha belgilab olgan vazifalarni albatta bajaramiz.

Biz uchun Vatani ramzi bo‘lgan mahalla tizimini barcha islohotlarimizda markaziy va hal qiluvchi bo‘g‘ingga aylantiramiz.

Tadbirkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratib, yangi-yangi ish o‘rinlari ochish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish, ularning bandligini oshirish e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalarni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Hech shubhasiz, biz bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bilan birga ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyatga tayanamiz.

Saylovoldi uchrashuvlarida milliy o‘zligimiz va ezgu qadriyatlarimizni asrab-avaylash, madaniyat, ma‘naviyat va ma‘rifat sohalarini rivojlantirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bo‘yicha belgilab olgan vazifalarni sizlar bilan, keng jamoatchilik bilan birgalikda amalga oshiramiz.

O‘zbekistonda barcha siyosiy huquqlar qatorida vijdon va e‘tiqod erkinligi kafolatlari so‘zsiz ta‘minlanadi.

Biz demokratiya va ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, konstruktiv muxolifat faoliyatini, so‘z va matbuot erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlarini kafolatlaymiz.

O‘zbekiston fuqarolari dunyoning qaysi o‘lkasi yoki mintaqasida bo‘lmasin, qonunlarimiz himoyasida bo‘ladi. Chet eldagi vatandoshlarimiz bilan aloqalarni yanada mustahkamlaymiz.

Qadri vatandoshlar!

Saylovoldi uchrashuvlarida har bir hududdagi eng dolzarb masala bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlarni muhokama qilib olganimiz albatta bejiz emas.

Maqsad — markaziy vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar va jamoatchilikni ana shu muammolar ichiga chuqurroq olib kirish, har bir hudud bo‘yicha yechimlarni aniq-aniq ko‘rsatib berish edi.

Endi hukumat ham, vazirlik va idoralar ham, mahalliy hokimliklar ham ana shu yo‘nalishlar bo‘yicha ishlaydi. Maqsad — aniq, vazifa — aniq, amalga oshiriladigan loyihalar — aniq, zarur mablag‘lar ham aniq-ravshan belgilab berilgan.

Odamlar endi bizdan yangi amaliy ishlarni kutaypti. Millionlab insonlar — ota-onalarimiz, opa-singillarimiz, o‘g‘il-qizlarimiz bugun bizga umid va ishonch bilan ko‘z tikib turibdi. Ana shunday umid va ishonchni oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi natijalar bilan mustahkamlash bizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylinishi shart.

Barcha bo‘g‘indagi rahbarlarga chiroyli, balandparvoz gapiga qarab emas, faoliyatining aniq natijasiga qarab baho beramiz.

Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo‘pol munosabatda bo‘ladigan, byurokratiya va korruptsiya balosiga berilgan har qanday rahbar bilan — u vazir yoki hokim bo‘ladimi, boshqa mas‘ul vazifadagi amaldor bo‘ladimi — salbiy harakatlari bilan davlat obro‘sigga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kesil xayrlashamiz. Ularning o‘rniga bilim, Vatani va xalq tashvishi bilan yashaydigan yosh-yosh yigit-qizlarni qo‘yamiz.

Mana, safimizga yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliygohlarda o‘qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelmoqda. Men ularning timsolida avvalo ertangi kunimizning yangi rahbarlarini, hudud, tarmoq va sohalarning mohir boshqaruvchilarini ko‘raman.

Iqtisodiyot sohasida ham tub burilishlarni amalga oshiramiz. “Yashil iqtisodiyot”, “yashil energiya” tamoyillarini yanada keng joriy etamiz. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini bir necha barobar oshiramiz.

Biz 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek juda katta marra oldik. Bunga erishish albatta oson bo‘lmaydi. Lekin bu yo‘lda aniq hisob-kitoblarimiz, real imkoniyatlarimiz bor. Tabiiy boyliklarimiz, mehnat resurslarimiz, intellektual va ma‘naviy salohiyatimiz, ish tajribamiz yetarli.

Men O‘zbekiston yoshlariga yana bir bor murojaat qilmoqchiman: aziz o‘g‘il-qizlarim, bugun tarixning o‘zi, zamonning o‘zi sizlarning oldingizda beqiyos imkoniyatlar ochmoqda.

El-yurt koriyga avvalo kim yaraydi?

Albatta, sizlar!

Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni kim barpo etadi?

Albatta, sizlar!

Yurtimiz, xalqimizni kelajakda kim rozi qiladi?

Albatta, sizlar!

Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi. Sizlar O‘zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz.

Yoshlik — g‘animat, vaqt — g‘animat, fursat borida otni qamchiang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o‘z so‘zingizni aytimg!

Izlanish va intilishdan aslo to‘xtamang! Baxt va omad doimo sizlarga yor bo‘lsin!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham biz uchun dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Biz, hech shubhasiz, ekologik muvozanat, musaffo havu, toza suv, bezavol tabiat tarafdorimiz. Bu masala biz uchun boshqalarga qaraganda nihoyatda dolzarb va muhimdir. Nega deganda, biz dunyodagi eng katta ekologik ofat — Orol fojiasini bevosita o‘z boshidan kechirayotgan xalqimiz. Shuning uchun hozirgi vaqtda respublikamizda bebaho ekologik tizimni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar, jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Biz kelgusida bu ishlarni yanada jadal davom ettiramiz.

Yangi quriladigan sanoat korxonalar loyihalarida bu masala bo‘yicha qattiq nazorat o‘rnatiladi. Orol-bo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ham barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘ramiz.

Ayni paytda biz faqat dehqonchilik bilan kun ko‘radigan mamlakat bo‘lib qolmasligimiz kerak. Biz atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, ishlab chiqarish industriyasi kuchli darajada rivojlangan davlatga aylinishimiz zarur.

Mamlakatimizda bugun mavjud bo‘lgan sanoat salohiyati, ochiq aytish kerak, dunyodagi ko‘pgina davlatlarda yo‘q. Biz mana shunday noyob salohiyatimizni yanada rivojlantirish, yurtimizni qudratli industriya makoniga, yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy mamlakatga aylantirish bo‘yicha katta-katta dasturlar qabul qilganimiz va ularni albatta amalga oshiramiz.

Biz nafaqat mohir paxtakor va bog‘bonlar o‘lkasi, balki IT bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar, injener va energetiklar, konchi va metallurglar, fizik va kimyogarlar mamlakat bo‘lishimiz kerak.

Qadri vatandoshlar!

**O‘zbekistonimizning yer osti va yer usti boyliklari ko‘p. Lekin bizning eng katta kuchimiz, bebaho boyligimiz bu — yagona, ahil oila bo‘lib yashayotgan ko‘pmillatli xalqimizdir.**

Bo‘lib o‘tgan saylovlar bu haqiqatni yana bir bor isbotladi.

Barchamiz millatimiz, tilimiz va dinimizdan qat‘i nazar, dunyomiz, el-yurtimiz tinch bo‘lsin, O‘zbekistonimiz obod va farovon bo‘lsin, farzand va nevaralarimiz sog‘lom bo‘lib, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallab, hayotda o‘z o‘rni va baxтини topsin, degan ezgu niyat bilan yashaymiz.

Biz mamlakatimizdagi 130 dan ortiq millat va elat vakillariga o‘z tili, madaniyati, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishlari uchun zarur sharoit yaratib berishni izchil davom ettiramiz.

Ishonchim komil, azaldan do‘stlik va hamjihatlik maskani sifatida shuhrat qozonib kelgan O‘zbekiston zaminini bundan buyon ham chinakam insonparvarlik va bag‘rikenglik diyori bo‘lib qoladi.

Muhtaram do‘stlar!

Hozirgi tahlikali zamonda yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta‘minlashning ishonchli kafolati bo‘lgan Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirish ustuvor vazifamizdir. Shu maqsadda biz milliy armiyamiz qudratini, askar va ofitserlarimizning javgovar shayligi, jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligini kuchaytirishga e‘tiborni yanada oshiramiz.

Harbiy xizmatchilar va soha faxriylarini, ularning oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash, moddiy ta‘minotini yanada yaxshilash, uy-joy bilan ta‘minlash, farzandlarining zamonaviy bilim va kasb-hunarini egallashi uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni ko‘ramiz.

Biz chuqur o‘ylangan tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya borasidagi harakatlarimizni izchil davom ettiramiz.

Avvalo, mintaqamiz mamlakatlari bilan yaqin do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarni yanada kuchaytirish asosiy maqsadimiz bo‘ladi.

Dunyoning uzoq-yaqin davlatlari bilan o‘zaro manfaatli va ko‘pqirrali aloqalarni kengaytirishga alohida e‘tibor beramiz.

Yaqin qo‘shnimiz bo‘lgan Afg‘onistonda tinch va osoyishta hayotni tiklash uchun afg‘on xalqiga qo‘limizdan kelgan barcha yordamni ko‘rsatamiz. Ushbu mamlakat bilan birgalikda yirik transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdormiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Parlamentlararo ittifoq, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko‘taramiz.

Aziz va qadrii yurtdoshlarim!

Biz sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birgalikda tarixan qisqa davrda, boshimizga tushgan qiyinchilik va mashaqqatlar, pandemiya va global inqiroz oqibatlariga qaramasdan, ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdik.

Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi, hayotimizning turli soha va tarmoqlari tubdan o‘zgarmoqda. Xalqimiz biz orzu qilgan o‘zgarishlarning dastlabki mevalaridan bahramand bo‘lmoqda.

**Donishmandlar aytganlaridek, olg‘a yurishni o‘ylagan inson uchun qo‘rquv, ikkilanish, shubha va gumon — eng katta dushmandir.**

Biz dadil oldinga intilib, qo‘rquv va hadikdan xalos bo‘ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do‘st va hamkorlar ortirdik. Yuksak iromimiz, qat‘iy sa‘y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo‘lib maydonga chiqdik.

Men saylovoldi uchrashuvlarida xalqimiz vakillari bilan chin dildan muloqot qilib, bu haqiqatga to‘la ishonch hosil qildim. Odamlarimiz katta maqsadlarga intilishidan, tashabbus ko‘rsatishidan, yangilik yaratishdan qo‘rqmaypti. Aksincha, bundan zavq va ilhom olib, yanada faol ishlayapti.

Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o‘zgartani, uning qalbida o‘ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo‘lgani — bu bizning eng katta yutuqimiz.

**O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, o‘z murod-maqsadlariga albatta yetadi. Mana shunday ulug‘ e‘tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo‘lib, uni yorug‘ manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharaftdir.**

**Hayotimning ma‘no-mazmuniga aylangan buyuk maqsad — Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga tinimsiz ishlashga, bor kuch-g‘ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etishga tayyorman.**

Men bilan bir safda sizlardek aziz qadrdonlarim, duogo‘y otaxon va onaxonlarimiz, azamat aka-ukalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azm-u shijoatli yoshlarimiz borligi menga bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat, ruh va ilhom beradi.

Ishonchim komil, barchamiz birgalikda Yangi O‘zbekistonni — inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta quramiz!

Barchamizni mana shunday ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashtirgan xalqimiz, Vatanimiz doimo omon bo‘lsin!

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin!

Yashasin O‘zbekiston!

Yashasin O‘zbekiston xalqi!

## SAMIMIY QUTLOVLAR

Boshlanishi 1-betda

Quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti **Vladimir Putin**, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi **Si Zinpin**, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti **Qosim-Jomart Toqayev**, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti **Sadir Japarov**, Tojikiston Respublikasi Prezidenti **Emomali Rahmon**, Turkmaniston Prezidenti **Serdar Berdimuhamedov**, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi **Gurbangul Berdimuhamedov**, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti **Ilhom Aliyev**, Belarus Respublikasi Prezidenti **Aleksandr Lukashenko**, Turkiya Respublikasi Prezidenti **Rejep Tayyip Erdog‘an**, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx **Muhammad bin Zoid Ol Nahayon**, Qatar Davlati Amiri Shayx **Tamim bin Hamad Ol Soniy**, Hindiston Respublikasi Prezidenti **Draupadi Murmu**, Eron Islom Respublikasi Prezidenti **Ibrohim Raisiy**, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri **Shahboz Sharif**, O‘mon Sultoni **Haysam bin Toriq**, Koreya Respublikasi Prezidenti **Yun Sok Yol**, Italiya Respublikasi Prezidenti **Serjo Mattarella**,

Vengriya Prezidenti **Katalin Novak**, Vengriya Bosh vaziri **Viktor Orban**, Armaniston Respublikasi Bosh vaziri **Nikol Pashinyan**, Singapur Respublikasi Prezidenti **Halima Yaqub**, Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas**, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri Shayx **Muhammad bin Roshid Ol Maktum**, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident ishlari bo‘yicha vaziri Shayx **Mansur bin Zoid Ol Nahayon**, Qatar Davlati Amiri o‘rinbosari **Shayx Abdulloh bin Hamad Ol Soniy**, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev**, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bosh kotibi **Sergey Lebedev**, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husrav Noziyri**, Jahon turizm tashkiloti bosh kotibi **Zurab Pololikashvili**, Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi hay‘ati raisi **Mixail Myasnikovich**, Ko‘rfaz arab mamlakatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi **Jasim Muhammad al-Budayviy**, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti **Szin Lisyun**.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLANGAN PREZIDENTI O‘Z LAVOZIMIGA KIRISHDI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonning eng katta kuchi ahil oila bo‘lib yashayotgan ko‘pmillatli xalqi ekanini, yurtimiz bundan buyon ham chinakam insonparvarlik va bag‘rikenglik diyori bo‘lib qolishi ta‘kidlandi.

Chuqur o‘ylangan tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya borasidagi harakatlar izchil davom ettiriladi. Avvalo, mintaqamiz mamlakatlari, hamkor davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar yangi bosqichga ko‘tariladi. Ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish ham dolzarb vazifa bo‘ladi.

Prezident xalqimizning dunyoqarashi yuksalgani, odamlar katta maqsadlarga intilib, ertangi kunga ishonch bilan yashayotgani eng katta yutuq ekanini ta‘kidladi.

O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, o‘z murod-maqsadlariga albatta yetadi.

— Mana shunday ulug‘ e‘tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo‘lib, uni yorug‘ manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharaftdir. Hayotimning ma‘no-mazmuniga aylangan buyuk maqsad — Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga tinimsiz ishlashga, bor kuch-g‘ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etishga tayyorman, — deya ta‘kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz madhiyasi ijro etildi.

**BUYUK O'ZBEK YO'LI**

# XALQIMIZ — DAVLATXOH, PREZIDENTIMIZ — XALQSEVAR VA ADOLATPARVAR

## (O'zbekiston Respublikasi saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisi ilk taassurotlari)



**Akmal SAIDOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi Spikerining birinchi  
o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

O'zbekistonliklarning bu ulkan ishonchi zamirida, albatta, so'nggi yillarda mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida yangi O'zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish yo'lidagi Millat Sardori amalga oshirayotgan ulug'vor va ezgu ishlari bilan xalqimiz qabining to'ridan mustahkam joy egallaganidek asl haqiqat mujassam.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilingan dastlabki haftadayoq, ya'ni 2023-yil 8-mayda davlatimiz rahbari "Muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Bu ham Prezidentimiz yangi O'zbekiston Konstitutsiyasiga so'zsiz amal qilishni shaxsan boshlab berganidan yaqqol dalolatidir.

Chunki Konstitutsiyamizning 128-moddasi uchinchi bandiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida qasamyod qabul qilishi bilan bog'liq norma mustahkamlangan.

Jahon tajribasida bunday tantanali marosim — "Inauguratsiya", deb ataladi. Bu atamaning mazmun-mohiyati, soddaga aytganda, qasamyod qilib o'z lavozimiga kirishish, deganidir.

### Inauguratsiya: xorijiy tajriba

Inauguratsiya, asosan Yevropa mamlakatlarining davlatchilik amaliyotiga ko'ra, davlat boshlig'ining lavozimiga kirishish tantanali marosimi hisoblanadi. Tarixda ushbu marosim markazida Qiroлга to'j kiydirish an'anasi turgan bo'lib, keyinchalik bu odat faqat Buyuk Britaniyadagina saqlanib qoldi.

Hozirgi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarda inauguratsiya dabdabali tantanalardan xoli, zamonaviy rasmiy konstitutsiyaviy marosim tarzida o'tkaziladi.

Masalan, AQSH Konstitutsiyasiga muvofiq, Amerika Qo'shma Shtatlarining yangi saylangan Prezidenti lavozimiga kirishish uchun Vashingtondagi Kapitoliy binosi oldida an'anaviy tarzda ochiq tashkil etiladigan marosimda tantanali qasamyod qabul qilinadi.

Inauguratsiyaning amerikacha tartib-taomili dunyoning ko'plab mamlakatlari tomonidan qabul qilingan. Shu bilan birga, AQSHda inauguratsiya dastlab doimiy ravishda 4-mart kuni o'tkazib kelingan bo'lsa, 1933-yili AQSH Konstitutsiyasiga 20-tuzatish kiritilganidan munosabati bilan mazkur tantanali marosimni o'tkazish sanasi 20-yanvargacha ko'chirilgan.

Boshqa bir qator davlatlarda ham inauguratsiya aniq belgilangan sanada o'tkaziladi. Jumladan, bu tantanali marosimni Meksikada — 1-dekabr, Braziliyada — 1-yanvar, Kolumbiyada — 7-avgust, Germaniyada — 1-iyul kunlari o'tkazish qonunchilikda belgilab qo'yilgan.

Dunyoning aksariyat davlatlarida esa inauguratsiya o'tkazish sanasi aniq belgilanmagan. Bu boradagi milliy amaliyotimiz O'zbekiston aynan keyingi guruhdagi davlatlar sirasiga mansubligini ko'rsatadi. Ya'ni qonunchiligimizda inauguratsiya aniq qaysi sanada o'tkazilishi belgilanmagan.

Yevropaning davlat dini amal qiladigan ayrim mamlakatlarda davlat boshlig'ining lavozimiga kirishish tantanali marosimida xochni o'pish yoki "Injil" kitobiga kaftni bosish amallari qo'shimcha majburiy taomil sifatida kiritilgan. Irlandiya, Italiya va Gretsiyada shunday amaliyot mavjud.

Turli mamlakatlarda inauguratsiya tadbiri faqat davlat boshlig'ining qasamyod qabul qilishi timsolidagi tantanali marosim bilan cheklanib qolmaydi, balki boshqa bir qancha tantanalarga ulanib ketadi. Jumladan:

AQSHda — inauguratsiyaga bag'ishlangan tantanali parad va bal;

Braziliyada — usti ochiq avtomobilda poytaxt ko'chalari bo'ylab tantanali sayr, harbiy parad va jamoatchilik oldida ayrim yuqori mansabdor shaxslarni, jumladan, hukumat a'zolarini lavozimlarga tayinlash amaliyoti o'tkaziladi;

Fransiyada — inauguratsiya marosimi mushakbozlik bilan yakunlanadi, bunda to'plardan 21-marta o't ochildi.

Janubiy Koreyada Prezident inauguratsiyasi mamlakatning bir palatasi parlamentini — Milliy majlis binosi oldida, ko'p sonli mehmonlar ishtirokida ochiq osmon ostida o'tkaziladi. Mehmonlar yangi saylangan davlat boshlig'i so'zga chiqadigan minbar ro'parasidagi yig'ma o'rindiqlarga joylashtiriladi. Yomg'ir yog'ib qolishi ehtimoli hisobga olinib, har bir ishtirokchiga yomg'ir-po'sh beriladi.

Inauguratsiya marosimida lavozimga kirishishi munosabati bilan yangi saylangan davlat rahbariga muayyan davlat timsollarini topshirish an'anasi ham mavjud. Xususan:

Rossiyada yangi saylangan Prezidentga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti shtandarti, Konstitutsiyamiz maxsus nusxasi va yadro jomadonchasi, ya'ni Rossiyamiz jami yadro salohiyatini boshqarish kaliti taqdim etiladi;

Fransiyada yangi saylangan Prezidentga "Faxriy legion" ordenining buyuk magistri sifatida Prezident belgisi va "yadroviy kod" beriladi;

Finlyandiya yangi saylangan Prezident Birinchi darajali "Oq Atirgul" ordeni bilan taqdirlanadi. Ushbu yuksak davlat mukofoti 1919-yilda Finlyandiya regenti general Karl Gustav Mannergeym tomonidan ta'sis etilgan.

Ba'zi bir mamlakatlar tajribasida yangi saylangan davlat rahbarining lavozimiga kirishish tantanali



### Olis va shonli tariximizda qasam bilan bog'liq ibratli hikoyatlar ham ko'p. Shunday tarixiy voqealardan biriga ko'ra, Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bekning otasi Shohruh Mirzo Misr sultoniga maktub yo'llab, o'zi maxsus tayyorlangan Ka'ba kisvasini, ya'ni yopinchig'ini yuborishga ijozat so'raydi.

Shohruh Mirzoning elchisi 1430-yili sulton Beyrutz qabulida bo'lganida, Shohruh Mirzo Ka'ba ustiga Misr sultoni ka'bapo'shi ostidan bo'lsa ham yopilishiga erishadi. Ya'ni o'n besh yil deganda Temuriyozda hukmdor o'z qasamining ustidan chiqadi.

O'zbek tilidagi "qasam", "ont", "va'da" kabi sinonim so'zlar orasidan aynan "qasamyod" atamasi tanlab olingani va Konstitutsiyamizga muhrlab qo'yilgani bejiz emas. Chunki ma'naviy-lisoviy jihatdan

Ammo baribir, 1445-yili Shohruh Mirzo o'zi tomonidan Qohiraga yuborilgan kisvaning Ka'ba ustiga Misr sultoni ka'bapo'shi ostidan bo'lsa ham yopilishiga erishadi. Ya'ni o'n besh yil deganda Temuriyozda hukmdor o'z qasamining ustidan chiqadi.

O'zbek tilidagi "qasam", "ont", "va'da" kabi sinonim so'zlar orasidan aynan "qasamyod" atamasi tanlab olingani va Konstitutsiyamizga muhrlab qo'yilgani bejiz emas. Chunki ma'naviy-lisoviy jihatdan

### Inauguratsiya: mazmuni va milliy tarixi

"Inauguratsiya" — lotincha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "qushning parvozi-ga qarab, ezgu niyat qilish", deganidir.

Ko'rinib turibdiki, talaffuzi tilni "sindiradigan" darajada qiyin bo'lgan ushbu kalomning tub ma'no-mohiyati bizga begona emas. Aksincha, juda-juda yaqin, o'ta qadrdon.

Birinchiidan, bu so'zning mazmunida xalqimiz tiyatiga xos fazilat — ezgu niyat qilish yo'rig'i jo bo'lgan. Niyat — bu xohish-iroda, murod-maqсад, orzu-umid, demak.

Hamma narsa niyatga bog'liq. Niyat — amallar poydevori. Hadisda marhamat qilinganidek, "Albatta, amallar niyatga bog'liqdir. Albatta, har bir kishiga niyat qilgan narsasi bo'ladi".

Alisher Navoiy hazratlari yaxshi niyatli, oliy maqsadli, azmu irdali insonlarga nisbatan "niyatlig" degan so'zni g'azal va dostonlarida ko'p qo'llaganlar.

Navoiy bobomizning "Xazoyin ul-ma'noiy" kitobida Temuriyozda podshoh va bolalik do'sti bo'lmish Husayn Boyqaro hazratlariga bag'ishlangan shunday bayt bor:

*Mumkin ermas shahlar ichra  
bo'yla niyatlig', magar  
Shohi G'oziykim muyassar bo'ldi  
bu davlat anga.*

Ya'ni Shohi G'oziy — "niyatlig", demakki yaxshi niyatli, oliy maqsadli, azmu irdali inson bo'lgani uchun ham, davlatni boshqarishdek sharafli va mas'uliyatli amalni ado etish vakolatiga muyassar bo'ldi.

Ikkinchiidan, "Inauguratsiya" so'zi ma'nosidagi "qushning parvozi"ga oid talqin ham Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqi uchun nihoyatda tanish. Tarixiy an'analarimizni bir eslaylik.

Adalata, davlat boshlig'i martabasiga yuksalgan insonga nisbatan xalqimiz "boshiga davlat qushi qo'nibdi" degan iborani ishlatadi.

Sohibqiron Amir Temur hazratlari 1370-yili bo'lib o'tgan qurolliyda Movarounnahrning ulug' amiri deb e'lon qilingani bilan bog'liq ko'plab tarixiy hikoyatlardan birida aytilishicha, ul zotning pirlari Sayyid Baraka ulug' Sohibqiron faoliyatini qo'llab-quvvatlab, katta nog'ora va tug' (bayroq) tortiq qilgan. Binobarin, o'sha davrda saltanat sohibiga topshirilgan nog'ora bilan bayroq oliy hokimiyatning ramzi hisoblangan.

Boshqa bir hikoyatga ko'ra, Sohibqiron bobomiz Movarounnahr hukmdori sifatida taxtga o'tirganidan so'ng "Amir Temur Tarag'ay" so'zlari bitilgan muhrga ega bo'lgan. Shuningdek, Amir Temurning "Rosti-rusti" kalimasi va uchta doira shakli naqshlangan muhri buyuk saltanat buyukdori va hukmdorining jahongirlik siyosatini o'zida aks ettirgan.

Albatta, O'rta asrlarga mansub hukmdor toj-taxtining mahobatiy ulug'vorligini ko'rsatish hamda Amir Temur saltanatining shukhi va dabdabasini namoyon etishga xizmat qilgan bunday tartib-taomillardan

ba'zilari ayni vaqtda tarixda qolgan va bu tabiiy hol.

Shu bilan birga, agar sinchiklab qaralsa, Amir Temur saltanatidan meros tartib-taomillarning ba'zilari Sharq va G'arb mamlakatlarida o'tkaziladigan inauguratsiya marosimlarida u yoki va bu ko'rinishda hali ham qo'llanib kelayotganini ko'rish mumkin.

Xalqimiz tilidagi "davlatxohlik" kalomi ham tantanali marosim ruhiyatiga uyg'un va hamohangdir. Bu so'z xayrixoh, do'stona, degan ma'nolarni beradi.

O'zbekiston xalqi yana bir bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni qo'llab-quvvatlash, yurtdoshlarimiz ovoz berish asosida o'z davlatxohligini — xayrixoh va do'stona munosabatini ochiq namoyon etdi.

### Yangi O'zbekiston Prezidentining saylanishi: ishonchli g'alaba omillari

Tantanali tadbirda hozir bo'lganlarimg aksariyati — deputatlar va senatorlar, bir oddiy haqiqatni o'z taqdiri misolida sinab ko'rgan. Bu ham bo'lsa, bugungi saylovchi — kechagi saylovchi emas, degan haqiqat.

Bugungi saylovchilarning talabi — qat'iy, maqsadlari — aniq, orzu-niyatlari — yuksak.

Bugungi saylovchi ertaga emas, shu bugun baxtli, to'kis va farovon hayot kechirishni istaydi.

Bugungi saylovchi o'zi ovozini beradigan nomzoddan bu borada taklif etiladigan aniq-ravshan Saylovoldi dasturini kutadi. Taqdim etilgan dasturni esa obdon o'rganadi, sinchiklab va tanqidiy tahlil qiladi.

Shu ma'noda, Shavkat Miromonovichga mutlaq ko'pchilik saylovchilar yoqlab ovoz bergani quydagi uchta muhim omil bilan chambarchas bog'liq.

**Birinchi omil:** bugungi saylovchilarning aksariyati Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi samaralaridan mamnun va manfaatdor bo'lgan. Xalqimiz bilan hamnafaslikda ishlab chiqilgan ushbu dasturiy hujjat asosida mamlakatimiz hayotining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qanchadan-qancha salmoqli chora-tadbirlar belgilab olingani va izchilik bilan amalga oshirilganini bir eslaylik.

**Ikkinchi omil:** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan bo'lib, ushbu dasturial-amal hujjat doirasida 2022-2023-yillarning o'zidayoq yettita ustuvor yo'nalishda bajarilgan ishlar ko'lamini va miqyosini tahsinga loyiq.

**Uchinchi omil:** saylov kampaniyasi doirasida bo'lib o'tgan Tadbirkorlar va ish-bilarnonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining o'n birinchi syezdi-da ushbu siyosiy partiyadan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyev o'z Saylovoldi

dasturini saylovchilar e'tiboriga taqdim etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning uchala strategik dasturi ham yurtdoshlarimiz va xalqaro hamkorlarimiz taklif-tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan uchun nihoyatda xalqchildir.

Shavkat Miromonovichning bu galgi Saylovoldi dasturida hayotimizning eng ustuvor yo'nalishlarini qamragan beshta maqsad haqida so'z boradi. Ya'ni:

**birinchi maqsad** — ta'lim yo'nalishi; **ikkinchi maqsad** — barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash; **uchinchi maqsad** — suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish; **to'rtinchi maqsad** — qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish; **beshtinchi maqsad** — Qurolli Kuchlarimizning harbiy salohiyatini yanada oshirishdan iborat.

Har bir maqsad muayyan chora-tadbirlar va qat'iy vazifalarni ko'zda tutadi. Bu vazifalarning ko'lamini va miqyosini qanchalik qamrovdor bo'lsa, ijrosini ta'minlash mexanizmlari shunchalik aniq.

**Birgina misol:** ta'lim yo'nalishida — dunyodagi "Top-500"ga kiradigan chet el oliygohlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma o'quv dasturi va "ikki diplomli tizim" joriy etiladi. Bundan tashqari, biotexnologiya, sun'iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo'nalishlarda yiliga iste'dodi 500 yigit-qiz eng nufuzli xorijiy oliygohlarga davlat hisobidan o'qishga yuboriladi.

O'zbekiston Prezidentining strategik dasturlari davlatimiz va jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini tugal qamrab olgan. Shu bilan birga, ayni dasturlardagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishidan yurtdoshlarga har bir insonga — qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy va ma'naviy manfaat yetisa, o'z navbatida, har qaysi oila va xonadon obodlik, to'kinlik, fayz va baraka topadi.

Nazarimda, bu hayotiy haqiqatlar "Nima uchun xalqimiz bu galgi saylovda ham aynan Shavkat Mirziyoyev nomzodi uchun ovoz berdi?", degan dolzarb va tabiiy savolga munosib javob bo'la oladi.

Shu kunlarda dunyoning yetakchi davlatlari timsolidagi ishonchli hamkorlarimiz ham yangi O'zbekiston Prezidentining islohotlar dasturini qo'llab-quvvatlashini e'lon qilmoqda.

Jumladan, "Prezident Mirziyoyev o'zining yangi mandatini qabul qilayotgan bir paytda, AQSH uning islohot va boshqaruv dasturini amalga oshirishda, jumladan, qonun ustuvorligi, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro nazorat va muvozanatni ta'minlash, shaxs huquqlarini himoya qilish sohalarida yordam berishga tayyor", deyiladi AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi Bayonotida.

Buyuk Britaniya parlamenti Lordlar palatasi a'zosi, baronessa Manzila Ud-dinning fikricha, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda saylovchilar ishtiroki yuqori darajada bo'lgan. Bu, shubhasiz, O'zbekistonda saylovoldi kampaniyasi yaxshi tashkil etilganidan dalolat beradi".

Xitoydagi Shanxay ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi direktori Sun Si "Saylov demokratik tamoyillar, xalqaro huquqiy-normativ talablar doirasida ochiq va shaffof o'tgani"ni e'tirof etdi.

Shuningdek, "Hindiston — Janubiy Koreya" do'stlik jamiyati raisi, Hindistonning mamlakatimizdagi sobiq elchisi, "Vivekananda xalqaro fondi" tadqiqot markazi eksperti Skand Tayalning ta'kidlashicha, "Fuqarolarning saylov jarayonida o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishga bo'lgan faolligi diqqatga sazovor. Muhimi, mamlakatda amalga oshirilayotgan izchil islohot va yangilanishlar, ularning huquqiy asoslari yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan".

Muxtasar aytganda, davlatxoh — ya'ni xayrixoh xalqimiz o'zi bilgan, tanigan va tan olgan Shavkat Mirziyoyevga ovoz berdi. Donishmand o'zbekistonliklar bu gal ham o'zining xalqsevar va adolatparvar Prezidentini sayladi.

Xalqimizning erkin xohish-irodasi, maqsad-muddaosi va orzu-niyatlariga tayangan ushbu saylov natijalari xalqimiz farovonligi va baxtiyorligini ta'minlash, mamlakatimiz obodligi, tinchligi va taraqqiyotini kafolatlash hamda Vatanimiz obro-e'tibori va imijini dunyo miqyosida yuksaltirish yo'lidagi xizmat qilishi muqarrar.

## BIZ VA DUNYO

# YANGI O'ZBEKISTON – BU XALQQA XIZMAT QILISH SHARAF HISOBLANADIGAN MAMLAKAT

Boshlanishi 1-betda

Shuni ta'kidlashni istardimki, Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyat davomida 2016-yildan buyon tashqi siyosatga puxta o'ylangan va ilg'or yondashuvni namoyish etib kelmoqda, bu Singapurning global o'zaro aloqadorlik va jahon miqyosida o'zaro bog'langanlik to'g'risidagi tasavvuriga hamohangdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonning yaqin va uzoq xorijdagi mamlakatlar bilan munosabatlarni chuqurlashtirish va diversifikatsiya qilishga sodiqligi ham mamlakatning ko'p qirrali o'zaro manfaatli munosabatlarni yanada chuqurlashtirish istagini o'zida ifoda etishini alohida ta'kidlash kerak. Ishonamizki, bunday sadoqat o'zaro hamkorlik, bir-birini tushunish va farovonlik ko'priklarini barpo etishga ko'maklashadi.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidentining iqtisodiy diplomatiya siyosatini ilgari surishdagi pragmatik yondashuvini alohida qayd etishni istardim. Bu, ayniqsa, siyosat va iqtisodiyotning kesishuvi tobora murakkablashib borayotgan va o'zaro bog'liq bo'lgan davrimizda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy diplomatiyaga alohida e'tibor qaratish O'zbekistonning nafaqat biznes uchun ochiq bo'lishini, balki barqaror iqtisodiy rivojlanish va o'sish uchun sharoit yaratishga faol hissa qo'shish hamda xalqaro maydondagi siyosiy ta'sirini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini kafolatlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekiston bundan keyin ham gullab-yashnashiga hamda jahon maydonida muhim o'rin tutishiga ishonchim komil. Shu bilan birga, Singapur va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanishi va kengayishini kutib qolamiz.



**Go FENCHJI,**  
MDH mamlakatlar bilan xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha Guandun ittifoqining bosh kotibi (XXR):

— O'zbekiston Prezidenti saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etish men uchun katta sharaf bo'ldi.

O'zbekistondagi hamkasblarimning ko'magi va qo'llab-quvvatlashi bilan oltita saylov uchastkasida bo'lib, saylovchilarning ro'yxatga olinishi va ovoz berishini hamda butun saylov jarayonini kuzatdim.

O'ylaymanki, ushbu saylovlar yuqori saviyada, juda uyushgan, ochiq va oshkorlik muhitida o'tdi. Mazkur siyosiy tadbir davomida xalq o'zining ishongan rahbarini saylashi, saylov huquqidan foydalanishi uchun barcha zarur kafolatlarni berilganiga guvoh bo'ldim.

O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi saylangan Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosim va Shavkat Mirziyoyevning nutqi butun



**Karrem KASSIM,**  
Malayziya Strategik va xalqaro tadqiqotlar instituti eksperti:

— Men yangi saylangan Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston hukumati keyingi 7 yilda bajarishni rejalagan strategik maqsadlari mamlakat xalqi va xalqaro hamjamiyatning e'tiboriga havola qilingan ilk nutqini diqqat bilan o'qib chiqdim.

Darhaqiqat, O'zbekiston yangi davrga qadam qo'yimoqda. Men yaqinda Malayziyadan kelgan xalqaro kuzatuvchilar delegatsiyasi tarkibida go'zal O'zbekistonda bo'lib, respublikada amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar va islohotlarning guvohi bo'ldim.

Quvonarli jihati shundaki, O'zbekiston rahbariyati mamlakatda boshlangan va inson manfaatlarini ta'minlashga asoslangan "inson — jamiyat — davlat" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni izchil davom ettirishga sodiqdir.

O'zbekiston rahbarining mamlakatda korrupsiyaga batamom barham berish borasidagi yondashuvi alohida e'tiborga sazovordir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi delegatsiyasining joriy hafta Kuala-Lumpurga safari Malayziyada katta qiziqish uyg'otdi.

Davlat xaridlari, tenderlar va investitsiya loyihalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ilg'or tajribalar almashuvi, shuningdek, bu sohada hamkorlikni kengaytirish bo'yicha erishilgan kelishuvlar, shubhasiz, O'zbekistonda ushbu turdagi jinoyatchilikka qarshi kurashda Malayziya tajribasini qo'llashga ko'maklashadi.

Shuni ham ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston Prezidentining qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha o'ta pragmatik strategiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyalashuvi uchun mustahkam poydevor yaratdi va o'z samarasini bermoqda.

Umuman olganda, yangi O'zbekiston Prezidentining ulkan rejaları aholi farovonligiga hamda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilishiga ishonchim komil.

mamlakat bo'ylab hayotga tatbiq etilayotgan islohotlarni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha belgilab berilgan aniq chora-tadbirlar yaqin 5-7 yil ichida O'zbekiston o'z maqsadlariga erishishi nuqtayi nazaridan mening ishonchimni yanada mustahkamladi. 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish hamda xalq farovonligini sezilarli darajada oshirish ana shunday ezgu vazifalar sirasiga kirishi, shubhasiz, katta e'tiborga sazovordir.

Yangi saylangan Prezidentni samimiy qutlar ekanan, Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbarligiga saylangani, shubhasiz, O'zbekistonning kelgusi barqarorligi va ravnaqi uchun katta ahamiyatga ega, deb hisoblayman.

Ishonchim komilki, kelajakda ham O'zbekistonning Xitoy bilan va, xususan, Guandun hamda mamlakatimizning boshqa janubiy viloyatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, savdo va sayyohlik sohaslarida yanada katta muvaffaqiyatlarni zabt etadi.

**Kazim NIYOZ,**  
Pokiston iqtisodiyot vazirining birinchi o'rinbosari:

— 14-iyul kuni yangi saylangan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning inauguratsiya marosimidagi nutqini ishtiroq bilan tingladim.

Mazkur dasturulamal nutqda mamlakat iqtisodiyotini xalqaro iqtisodiy munosabatlarga yanada integratsiyalashirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik siyosatini davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyev bundan oldingi Prezidentlik davrida Markaziy Osiyo, so'ngra Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan strategik aloqalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan misli ko'rilmagun muvaffaqiyatlarga erishdi.

Bugun O'zbekiston rahbari o'z nutqida Afg'oniston va Pokiston bilan o'zaro bog'liq loyihalarni amalga oshirish muhimligini, iqtisodiy va gumanitar yordamini qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini alohida ta'kidlagani bizni quvontirdi.

Pokiston hukumati ushbu tashabbusni to'liq qo'llab-quvvatlaydi va qo'shma loyihalarni amalga oshirishda o'zbekistonlik hamkasblari bilan faol ish olib borishga tayyor.

Ishonchim komilki, mamlakat o'z rahbari rahnamoligida iqtisodiy salohiyatini, moliyaviy qudratini, ijtimoiy, siyosiy va moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashda davom etadi, mintaqaviy va xalqaro miqyosda yangidan-yangi marralarni zabt etadi.



**Ilgar VELIZADE,**  
O'zbekistonning "Janubiy Kavkaz" siyosatshunoslar klubining rahbari:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari etib qayta saylanishi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini anglatadi.

Yaqinda bo'lib o'tgan Konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha umumxalq referendumida yangilangan Asosiy qonunning qabul qilingani O'zbekiston o'zi tanlagan va mamlakat rahbari yetakchiligida so'nggi yillar davomida ishonch bilan olib borilayotgan siyosiy yo'lni yangi xalq tomonidan yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Jiddiy siyosiy tebranishlar, jahon bozorlaridagi noaniqlik sharoitida O'zbekistonning mintaq va dunyodagi mavqei ko'p jihatdan mamlakatning muvozanatli tashqi siyosat yuritayotgani, O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan samarali iqtisodiy siyosati hamda aholi bandlegini ta'minlash bo'yicha olib borayotgan izchil, e'tiborga molik faoliyati bilan izohlanadi.

Ekspertlar tomonidan bildirilayotgan fikrlarga qaraganda, kelgusi yillarda bu yo'nalish nafaqat davom etadi va mustahkamlanadi, balki tez o'zgaruvchan sharoitlar ta'sirida sezilarli darajada zamonaviylashadi.

"Dunyo" AA

**Irfan XATTATO'G'LU,**  
Turkiya Mustaqil sanoatchilar va tadbirkorlar uyushmasi (MÜSIAD) vakili, huquqshunos va jurnalist:

— Buyuk O'zbekiston xalqi aslida o'z mamlakati manfaatlarini jahon miqyosida himoya qiladigan va ilgari suradigan kuchli yetakchi bo'lgan insonni tanladi.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yili Prezidentlikka saylanganidan keyin mamlakat o'z rivojlanishining yangi davriga kirdi va xalqaro hamjamiyat uning ko'p asrlik tarixi hamda madaniyati bilan yanada chuqurroq tanishishga muvaffaq bo'ldi.

ham ta'kidlash lozim. Prezidentning inauguratsiya marosimidagi "Oldimda turgan davr O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'ladi", degan so'zlari uning siyosiy islohotlarni yanada g'ayrat va shijoat bilan davom ettirayotgan dalolat beradi.

Davlat rahbari dunyoda ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlardan tortib, iqlim o'zgarishi muammolarigacha bo'lgan voqeelikni aniq-ravshan tasvirlab berdi. U bugungi tez o'zgaruvchan dunyo tartibotini aniq belgilar ekan, "bugun dunyo qanday shiddat bilan, keskin o'zgarib bormoqda. Jahon miqyosida bir tarixiy davr nihoyasiga yetmoqda", dedi. Darhaqiqat, bugun oldindan tahlil qilib bo'lmaydigan jaryonlardan iborat o'ta murakkab yangi bir davr boshlanmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosiy faoliyati O'zbekistonni mintaq va turkiy dunyoda geosiyosiy va geostrategik jarayonlarning asosiy subyektlaridan biriga aylantirdi. Dunyoning yetakchi davlatlari, ayniqsa, Afg'oniston masalasi bo'yicha O'zbekiston bilan hisoblasha boshladi.

So'nggi paytlarda turli mamlakatlarning ko'plab siyosatchilari o'zlarining ambitsiyalari va shaxsiy maqsadlari tufayli xalq muammolarini hal qilish uchun aniq qadamlar qo'y-masdan, populizm bilan shug'ullanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev esa maqsad va vazifalarni aniq anglatishi, o'zi rahbarlik qilayotgan davlatni yanada rivojlantirish yo'lini ko'rishini bilan ajralib turadi.



Uning davlatdagi asosiy muammolarni hal qilish va ijobiy iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi inqilobiy muvaffaqiyatlarini



Uning davlatdagi asosiy muammolarni hal qilish va ijobiy iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi inqilobiy muvaffaqiyatlarini



Uning davlatdagi asosiy muammolarni hal qilish va ijobiy iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi inqilobiy muvaffaqiyatlarini

## ISLOHOT ODIMLARI

**Bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanishi, aholining doimiy ish bilan ta'minlanishi, daromadi oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi ko'p jihatdan iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiya mablag'lariga bog'liq. Shu bois, yurtimizda ham xorijiy investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish va ish o'rinlari tashkil etish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.**

So'nggi yillarda investitsiyalar hajmini yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshirishga erishildi. Keng ko'lami va samarali islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 11-iyul kuni investitsiyalar jalb qilinishi yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishida ham tarmoq va hududlardagi investitsiya ko'rsatkichlari, loyihalar ijrosi va yil yakunigacha bo'lgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

E'tiborlisi, yig'ilishda davlatimiz rahbari yilning o'tgan olti oyida respublikamizda investitsiyalar faol o'zlashtirilgan sanoqli shahar va tumanlar qatorida Forish tumanini ham tilga oldi. Bu bejiz emas, albatta.

Keyingi yillarda butun mamlakatimizda bo'lgani kabi Forishda ham sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik

## IQTISODIYOTNI HARAKATGA KELTIRUVCHI OMIL

yo'nalishlarida ko'plab yangi loyihalar amalga oshirildi. Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi oshdi. Tumanning iqtisodiy ko'rsatkichlari yuksalmoqda.

Agar Forishning yaqin tarixiga nazar tashlasak, u viloyatning eng qo'choq tumanlaridan biri edi. Aholisi asosan, chorvachilik bilan shug'ullanar, ishlab chiqarish, sanoat deyarli yo'q edi. Investitsiya jalb qilish haqida-ku, gapirmasa ham bo'lardi.

Ammo yangi islohotlar sabab, bugun Forish mamlakatimizning chin ma'noda rivojlanayotgan tumanlaridan biriga aylandi. Jumladan, joriy yil yanvar-iyun

oylarida tumanda jami 110,1 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kredit o'zlashtirildi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 140 foizni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan davlatlar soni 2021-2022-yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshdi.

— "Basalt wool" MChJning bazaltidan mineral plita ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 44,8 million dollar, "Jizzax sement" MChJ XKning sement ishlab chiqarish loyihasida 20 million dollar, "Rockfiber" MChJning uzluksiz bazalt tola ishlab chiqarish loyihasini tashkil



etish doirasida 36,3 million dollar xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb etildi, — deydi Forish tuman hokimining investitsiyalar, innovatsiyalar, xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va kichik sanoat zonalarini hamda turizmni rivojlantirish masalalarini bo'yicha o'rinbosari Temur Sa'dullayev. — Joriy yil yakuni bilan jami 248,3 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar o'zlashtirilib ta'minlanadi va 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 121 foizga yetkaziladi.

Tumanda 2023-yil uchun 13 million 248,3 ming dollar miqdorida eksport prognozi belgilangan. Uning 11 million 889 ming dollari sanoat mahsulotlari va 1 million 359,3 ming dollari qishloq xo'jaligi mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu 2022-yil amalga oshirilgan eksportga nisbatan 1,5 barobar ko'p degani, — davom etadi hokim o'rinbosari. — 2023-yilning 1 yarim yilligi uchun 3 million 338,2 ming dollar (shundan, sanoat mahsulotlari 2 million 271,1 ming dollar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1 million 67,1 ming dollar) miqdorida mahsulot va

yaratilgan. Jumladan, "Rockfiber" MChJ QK tomonidan ishga tushirilgan loyiha sabab 205 ish o'ri yaratilgan bo'lsa, "Goldfiber pro" MChJ tomonidan umumiy qiymati 981 milliard so'mlik bazalt tolasini ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 51 kishining doimiy bandligi ta'minlandi.

— Tumanda 2023-yil uchun 13 million 248,3 ming dollar miqdorida eksport prognozi belgilangan. Uning 11 million 889 ming dollari sanoat mahsulotlari va 1 million 359,3 ming dollari qishloq xo'jaligi mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu 2022-yil amalga oshirilgan eksportga nisbatan 1,5 barobar ko'p degani, — davom etadi hokim o'rinbosari. — 2023-yilning 1 yarim yilligi uchun 3 million 338,2 ming dollar (shundan, sanoat mahsulotlari 2 million 271,1 ming dollar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1 million 67,1 ming dollar) miqdorida mahsulot va

xizmatlar eksporti prognozi belgilangan bo'lsa-da, amalda 3 million 478,5 ming dollar miqdorida eksport amalga oshirildi va prognoz ijrosi 104,2 foizga bajarildi.

Sanoat mahsulotlari eksporti 3 million 235,8 ming dollar yoki 143 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 242,7 ming dollar (23 foizga) uddalandi. Yil yakuni bilan 13,2 million dollar eksport ko'rsatkichi ijrosi ta'minlandi.

Darhaqiqat, Forish tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Davlatimiz rahbari bundan besh yil oldin tumanga tashrif chog'ida "Forish imkoniyatlari bo'yicha eng boy tumanlardan biri. Lekin hozir boshqa hududlardan biron orqada. Bu yerning qishloq xo'jaligi, geologiya, qayta ishlab sohalaridagi imkoniyatlarini to'g'ri ishga solsa, aholi farovonligi, mahalliy budjetni oshirish mumkin", deb ta'kidlagan edi. Forishliklar davlatimiz rahbarining mazkur iqtisodiyotni rivojlantirish, belni mahkam bog'lab, bugun turli sohalarda qo'lga kiritayotgan ulkan yutuqlari bilan ushbu so'zlarning to'g'riligini, tuman keng imkoniyatlar mavjudi ekanini isbotlamoqda. Islohotlar natijasida Forish tumani besh yil oldingi dotatsiya oluvchi tumandan bugun o'zini o'zi ta'minlovchi, qolaversa, tuman budjetini ortiq' bilan bajarib, qolgan mablag'lar hisobiga ko'plab loyihalarni moliyalashtirishga qurbi yetadigan iqtisodiy baqavvat tumanga aylandi.

Tumanning birgina investitsiyalar jalb qilish borasidagi yutuq va imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, tuman yaqin orada respublikamizning eng rivojlangan hududlaridan biriga aylanadi.

Farhod NE'MATOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



BOQIY MEROS

Olorda tug'ilgan Qaqqus

yoxud Qashqadaryo baxshichilik maktablari haqida



O'roz HAYDAR, shoir

Xalq og'zaki ijodi ramzlarga boyligi, inson mohiyatini ezgulikka uyg'unlash-tirishi, orzu-umid shohsupasida saodat mayog'ini baland tug' etishi bilan hayotga muhabbat uyg'otadi. Xalqonalik og'izga kelgan so'zni jirlash emas, har bir so'z tiniqligi, ma'nodorligi, turfa belgisiz isho-ralarda tovlanishi, his-tuyg'ularimizni "yelpishi", mazmun ko'lamdorligini qanot yoyishi barobarida ruhsiz olamimiz-ga hurlik epkini ulashishi bilan san'at maqomini o'rnatiladi. Polyak yozuvchisi Yan Parandovskiy "So'z kimyosi" asari-da Homer haqida yoza turib: "Uni oqin, baxshilarga o'xshab xalqona libos kiyib yurgan deyshadi, shu bilan birga, xuddi saroy shoiri kabi ko'shk va qasrlarga ham bemalol qadam ranjida qilib yurgan".

Mana shu qiyofa va harakat butun yer yuzidagi baxshilarga taalluqli. Xalq og'zaki ijodining oddiy va mukammal mazmun-dorligi (polifonikasi), ohangdorligi borliqni qay tarzda ifoda etmasin, barcha-bar-chani hayratga oshno tutgan. Shu o'rinda dunyo o'quvchilari qalbiga necha asrlar-dan buyon hayratlantirgan buyuk ispan yozuvchisi Migel de Servantesning "Don Kixot" asari ahoblarning "Ming bir kecha" ertaklariga hamohang yaratilgan bilan ulug'vor ahamiyat kasb etganini eslamay bo'lmaydi.

Xalq og'zaki ijodining go'zal va betak-ror namunasi bo'lgan baxshichilik san'ati ming yillar davomida ardoqlanib kelmoq-da. Prezidentimiz tashabbusi bilan Xalq-aro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Birinchi bor Surxondaryo zaminida, keyinchalik Nukus va Guliston shaharlarida tashkil etilgan Xalqaro bax-shichilik san'ati ushbu san'at rivojiga dunyo xalqlari e'tiborini qaratishga qo'yilgan qad-am bo'ldi, mintaqa va xalqaro hamjamiyat madaniy doiralarda katta qiziqish uyg'otdi.

Mamlakatimizning barcha viloyatlarida o'ziga xos baxshichilik maktablari mav-jud. Qashqadaryo baxshichilik maktabi shakl va mazmun jihatidan ajralib turadi. Abdulla baxshi Nurali o'g'li, Tog'ay baxshi, Zoir baxshi Qo'chqor o'g'li, Umir baxshi Safarov, Azim shoir Xo'jayov, Shomurod baxshi Tog'ay o'g'li, Qodir baxshi Rahim o'g'li, Qahhor va Abdumurod Rahimovlar va boshqa yuzlab baxshilarning o'z mak-tabini yaratib, xalq og'zaki durdonala-rini kuylab kelgan va kuylamoqda. Bu voha dostonchilari, jumladan, dehqon-obodlik (marhum) Qodir baxshi Rahim o'g'li, chiroqchilik (marhum) Azim shoir, qamashilik (marhum) Hazratqul baxshi Xudoyberdi o'g'li kabi baxshi-shoirilarning ovozlari Turkiya, AQSH, Rossiya, Fran-siya, Hindiston, Mo'g'uliston va boshqa xorijiy mamlakatlarga yetib borgan va dostonsevarlar qalbidan o'rin olgan. Qashqadaryoda Dehqonobod va Chiroq-chi baxshichilik maktablari, ayniqsa, o'zi-ga xosligi bilan nufuzga ega. Bu maktab baxshilari xalq dostonlari, termalarni ichki ovozda ijro etadiki, botiniy sezgimiz torla-rini chertishga qodir va ruhiy olamimizni jumbushga keltiradi.

Keling, o'zim ko'p bor suhbatini olgan, ovozi shirali, so'zlari durdek serjilo va ma'noli chiroqchilik marhum Shomurod baxshi Tog'ay o'g'li haqidagi xotiralarni bilan o'rtoqlashay.

O'zbekiston xalq baxshisi Shomurod baxshi xalq baxshichilik san'atida o'zi-ga xos maktab yaratganlardan. Uning yuz kitobga jo bo'lgilik terma-dostonlari xalq orasida mashhur. Otasi Tog'ay shoir

Biz ong osti sezimlarimiz to'yinishini, badiiy tafakkur tarzimiz shakllanishini, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarimizni fikrlashda, mulohaza yuritishda, munozaraga kirishish jarayonida tajassum topishiga erishamiz. O'zimizning mikroolamimizni ulkan koinot mo'jizalari sir-sinoatiga bog'lab, ezgulikning muhtasham qasri bo'lmish xalq og'zaki ijodi bo'stoni ma'naviy ma'danlari — dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, laparlar, chistonlar, bunday dur-u gavharlar "ozuqa"sidan ko'ngil saltanatini yorug'likka makon tutamiz.

1932-yilda ig'vogarlarining chaquvi bilan Sibirga surgun qilingan. Shunda Shomurod olti oylik chaqaloq bo'lgan. To'qqiz oyligida onasi Tojixol Shukurova sovuq iqlimga moslasholmay, og'ir shamollash-dan vafot etdi. Shomurod baxshi opalari qo'lida o'sdi. Sakkiz yoshida otasining mungli qo'shig'ini tosh qotib tinglardi. Tog'ay shoir ich-ichidan yig'lab terma aytardi.

Elimdan adashgan yolg'iz so'naman, Bulbul bo'lib gul shoxiga qo'naman, Enasoyga dardim aytib jiladim, Ishim bilan irtishlarga jiladim, Hoy-hoy, oy-y-y-y, hey-hey-y-y-y...

Tog'ay shoir 1945-yil urushdan qaytib kelib, bolalarini ko'kragiga bosib, og'ing-ho'ng yig'ladi. 1948-yilda Tog'ay shoir oqlangach, ular Chiroqchiga qaytishdi.

Shomurod baxshi bilan guruhlarim ko'p bo'lgan. Mahalliy shoirilardan Jo'ra Alimardonning xotira kechasidan qaytish chog'ida qishlog'imizda ukamning uyida bo'lib o'tgandi bu guruh. Bizga hamroh bo'lgan bolalar shoiri O'ta Berdiyorga (hozir 93 yoshda) qattiq hazillashardi. O'shanda baxshi 85 bahorni qarshilagandi.

Ukajon, bolaligimni eslasam, tosh-ga igna qadab shardo'z o'tkazaman. Voy-voy-a, enajonim-a, Oqmo'laning muz bag'rida qolib ketdi. Otam Tog'ay shoir-ga ko'p zorlandim: "Oqmo'laga borayin, enajonimni ko'rayin. O'ttiz jilni hatlab, umirimni xatlab o'tkazaveramanni", de-sam otam ko'nmadi. U yoqlarning betini it ko'rsin, juragimni tig'lama, bolam, dedi. Xuddi meni etagimdan tortib, Oqmo'la olib qolayotganday tuyuldimi, otajonim unamadi. Shuytib enamning mozorida bir martayam tunamadim. Endi saxon uchi-ni jag'alab, suvim qochib o'tiribman. Qanotim bo'lsa-yu, uchib-uchib, enajonim mozorining oldiga qo'nsam.

Shomurod baxshi do'mbira chertib, ovozini balandlatadi.

Jigit ulgur Mekkam chol, Letibarni sindirding, Otam olib berib edi, Nasibamdan ayirding.



Bilmaganni bildirding, Ajal bo'lib paymonamni to'ldirding, Uchar edim, qanotimni qayirding, Yurar edim, oyog'imdan toydirding. Biyigul, Biyigul, Rangsangul, rangsangul. Pufaklari qirqatgan gul, Hay-hayo, rabbimo, Olloyo, Mullato'rg'ay tong saharda

sayraydi,

Nega mening otajonim kelmaydi? Rostin aytgin, enajon, ena-yov, Mening otam o'zi qachon kelgaydi? Karvon o'tib boradi, Ikki o'g'lon karvonlarga chopadi. Otasini ko'rolmagan bolalar, Enasiga kelib, do'stlar, so'raydi. Enajon, jon ena, ena-yov, Aytgin otam o'zi qachon kelgaydi? Ena joti'ib jilaydi, Yor kelmasin biladi, Bilsa, qandoq qiladi, O'llo-yo, otam-a, jonim-a, Biyigul, Biyigul, Biyigul...

Bo'g'zingga xo'rsiniq tiqiladi, ko'z yoshlaring cho'qqa aylanadi. Yer tebrani-b, osmon qaldiraydi. O'zingdan o'zingni mosuvo etging keladi.

Ha, xunrezlik, qatliom zuluklari qatra qoningni simirib, olam shayni-ni uloqtirganda koinot tartiboti izdan

XALQ OG'ZAKI IJODINING GO'ZAL VA BETAKROR NAMUNASI BO'LGAN BAXSHICHILIK SAN'ATI MING YILLAR DAVOMIDA ARDOQLANIB KELMOQDA. PREZIDENTIMIZ TASHABBUSI BILAN XALQARO BAXSHICHILIK SAN'ATI FESTIVALINI O'TKAZISH YO'LG'A QO'YILDI.

chiqishi bor gap. Shomurod baxshi-ning qizarigan ko'zlariga o'ksinib tikilaman. Saxon uchida oyog'i-ni "salta" qilib ko'zoynak ilonday



o'ynatadigan, o'midan sakrab turadigan baxshining borligi og'irlashadi. Achchiq tumanday yopirilgan xotiralari yuki uni zaiflik chilivirida o'rib-eshadi.

Otam urushda. Ibrohim akamdan qoraxat kelgan qora kunlari bolalar uyida jashaydim. Bir kunga bir burda non be-radi-ya! Ochlikdan tosh chaynashdan tap tortmaymiz. Ko'z sopolday qotgan, qorin qavishgan, teri ustixonga javish-gan, tirik jon shayton bilan topishgan badbaxt kunlarning birida cho'chqabo-qar Leonidning to'ng'izxonasiga o'g'irlik-ka tushdim. Pishakday to'ng'iz bolasini jirtiq fufaykamning etagiga o'rab, devor oshuvdimki, cho'chqabogar payqab qol-di. Qochaman-a, qochaman. Och odam jugura olmaykan, irgalanib, ayagi jer-ga botib qolaykan. To'ng'iz fe'l Leonid va uning ikki uli meni ushlab oldi. Rosa do'pposladi. Odam tayoqdan o'lmaykan. Ko'karmagan, qoraymagan joyim qoma-di. "Enajo-onl!" deb zor qaqqash jiladim.

sochilib qochadi-yay! Atrofini o'rab olgan qizillar paq-paq etib otgani otgan. Bir ja-pon askar o'zini daryoga otdi. Judayam suzag'onakan. Uniyam qayiqda suzib borib otib tashlashdi. Bechora solday jon-boshiga ag'darilib, suvga cho'kib ketdi. Biz bolalar qaqqash jiladik. "Uyi kuysin Stalinini", deb so'kib jiladik. Odam bola-sining narxi qildan arzoniydi u paytlar. Bir qir nari bo'ylamagan O'ta buva nimani bilaydi. Jumronqoziqday bo'yini cho'zib-cho'zib, yer tirnab jurgan-da! Ha, ayla-nay-a, enasini begona jurtga qoldirgan biladi. Enamning tilini o'n jettimda — ota jurtimga qaytganimda tetapoya bachcha-day o'rgandim.

Mana, hozir, dasturxon qoshida do'm-birasini bir chetga avaylab qo'ydi-da, tiz-zalarini juftlab, qaddini tik tutib, qadrayib ukrain xalq qo'shiqlaridan birini ovozini balandlatganicha kuylay ketdi. Uy shiftlari zirillay boshladi. Ukam Shoyimnazar og'zi ochilganicha unga angrayib tikilib qoldi. Saxon besh yoshli qariyaning yigitlarday chaqqon va o'ktam harakatidan hayratlanardi. Qo'shiq tugashi bilan O'ta bobo-yan bo'layotgan chaldai.

Bir jildan beri, ukajon, termalar kuy-lashim bir soatdan oshmaypti. — dedi Shomurod baxshi biroz muztar tortib. — Ilgari boshqa tildarda termalarni ko'p bilaydim, endi xotiramdan ko'tariyapti. Termalar aytilmasam jilab juboraman, ukajon. Qarilikni bo'yinga olay desam, bo'ynim yor bermaypti. Endi nima qila-man. Odam shuytib qarib-to'zib qolama. Hali el kezib millatni millatdan, elatni elatdan ayri etmadim. Otam Tog'ay shoir do'mbirani qo'limga tuta turib: "Bolam, lo'li orasida lo'li bo'l. Shoirming millati yo'q. Urug' ajratgan kuning o'lganin de", deb qattiq o'git suqqan. Zolimdan qocha-man, yaxshining etagidan tutaman. El bir qism mayiz tutsa, ko'zingma surtaman. Eldan ayirmasin, ukajon.

Nazar Eshonqul degan yozuvchi birodarimiz aytuvi: "Shu Shomurod bax-shining kuylashidayam, do'mbira cher-tishidayam buriyatlarga xos ohang, ijro bor", deb.

Sibir bolasi-man-da. Sibiryak! — qiyqirib kuladi baxshi. — Qo'bizminam chiqisha olaman. Nazar tushmagur oq-ining ovozini "teri"sidanam ajrata bilaykan. Buryat baxshilari ovulimizga mehmon bo'lib kelaydi. Qozoq oqinlarim do'mbi-ra chertib, aytishuvlar qilganining guvohi-man. Do'mbira chertib, terma ayitishning uddasidan chiqqanidan so'ng qozoq oqinlarimnam "tashlashganman". Tan bergan joyi ko'p bo'lgan. Bilsang, katta maktab ko'rmadim. Otamning makta-bidan chiqqanman. Qodir baxshi Rahim

uli xo'p savodliydi. So'zni chertib-cheritib aytaydi. So'ziniyam zalvori yuk bosaydi. Bizlar yakkama-yakka ayitishuv qilma-ganmiz. U mening hurmatimni joyiga qo'ygan. Bir Sibir "sher"ining bo'lgani shu-da! Oqmo'lada qolib ketganimda ovozim o'zimminan ketaydi. Allohga shukur, qay bir kovakda qolib ketmadim. O'risning bo-lasini lahjasidan qaysi viloyatdan ekanini bilaman. Toshkent — Moskva poyezdi-ga tushib, kupedagi o'ris hamrohlarni lahjasiga qarab qaysi viloyatdan ekanini aytganimda uchoviyam hayratdan jag'a jirtgan. Novgorodliklar o'zbek bolasiga o'xshab "xorosho"ni "xorosh" deb talaf-fuz qiladi. Moskvalliklarga o'xshab "xara-sho" demaydi. Aytim-ku, Sibir bolasi-man deb! Surgun bo'lgan millatlarning zo'r'larimnam yashaganmiz. G'arbiikka kelgindilar ham og'a-iniga aylanarkan. Ko'rgan azoblarim hech bandasining boshiga tushmasin. Tinchlikdan ayla-nay. O'n qop oltining bo'lsin, kuningda farog'at bo'lmasa, o'tgan umringga hayf! Ahmoq podsho eldan mamlakat g'az-nasini yashiradi. Ularning qanchalari yer ostida joti'ibdi. Eldan ayirmasin. El bir mushtdan usna, o'ldiradi. Bir chimdim-dan tutsa, itingning tovog'i tildan bo'la-di. Termalarim qonarga sig'maydi. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchilaram jildan-jil-ga kamayib boryapti.

Shomurod baxshi yoshli ko'zlarini dastro'moli bilan arta turib, do'mbirani g'ilofga o'raydi. Dasturxoniga duo o'qilib, o'rnimizdan zo'g'alamiz...

Shomurod baxshi Termizda o'tka-zilgan xalqaro baxshichilik festivaliga borolmadi. Og'ir xastalikdan to'shakda yotib qolgandi. Festivaldan qaytganimda baxshi xonadonida bo'ldim. U og'ir so'lish oldi. Ko'zlaridan shashqator yosh sizib, yonoqlarini ho'lardi. Uning quruqshoq lablaridan so'zlar qumday to'kildi.

Prezidentimizga ming rahmat. Bax-shilarni kaftiga oldi. Baxshilar nazardan chetda qolyapti, deb juragim og'irdi. Eh-hey, shuncha baxshilar bor ekan-a, ularga navbat tegmay qolama devdim. Do'mbirasini sayrabti, jonib-jonib, to'kilib-to'kilib termalar ayitishini telvizarda ko'rib jiladim. Jilashimdan bolalarim qo'rqib ketishib qoshimda charx urishdi. Manovi quruqshoq qo'llarimni bazo'r ko'tarib, telvizorga qaranglar, deganday imo qildim. Men istiqlo' odamiman. Umrim olovda o'tdi. Olovda tug'ilgan qaqqus-man. Istiqlo'ni menchalik kim kutgan? Begona jerda ko'karib, ko'rganim xo'r-lik bo'ldi. Enadan bolani ajratib qo'ygan jallo'd tuzumga o't tushsin. Otam Tog'ay shoir bachaday ho'ngrab jilaydi: "oz jurtimni tuprog'iga bos qo'yib o'lsam, Allohdan rozi edim", deb. Hali armon qildam, enamning mayiti begona jurtga qoldi, deb. Baxshilari bor xalq qarimaydi, jurtida to'kinchilik bo'ladi. Hammanglar omon bo'linglar.

Shomurod baxshi chuqur xo'rsindi, uning xo'rsinshida ham bugungi dorilo-mon kunlarga shukronalik balqib turardi.

Baxshining ovozida asliyati-miz — ta-rixi insoniyat yaralmishining ilk davrlariga borib taqaladigan, insonning olamni ang-lash ibtidosining mungli, mustar va jaso-ratli hayqirig'i mujassam.

Ana shu bir qadar nolakor va hami-sha navqiron navolarni yurak qo'rini berib tinglasangiz, olis o'tmishimiz, dolg'ali bu-gunimiz, sirli va sehrli ertamizning so'z-lar qudratidagi qiyofasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Zero, shuning uchun ham baxshi va baxshichilik san'ati abadiyatga daxldordir.